KAPITAL QO'YILMALARI VA KAPITAL BOZORI

Ollaberganov Jayhunbek
Toshkent Davlat Iqtisodiyot
Universiteti To'rtko'l fakulteti talabasi
tel: +998 93 547 21 26
jayhunbekollaberganov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot tezisida kapital bozori, uning ajralmas qismi bo'lgan kapital qo'yilmalaring rivojlanish holati va kapital bozorini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi o'rganilgan, kapital bozorining rivojlanish jarayoni va istiqbollari , hamda uning O'zbekiston iqtisodiyoti uchun asosiy tamoyillari tahlil qilingan va mavjud muammolar ko'rsatib berilgan, shuningdek tezisning yakuniy qismida kapital bozorini yanada rivojlantirish bo'yicha xulosalar va takliflar mavjud.

Kalit so'zlar. kapital, kapital qo'yilmalari, kapital bozori, kredit bozori, fond birjasi.

Har qanday biznes yoki kompaniya yoxud u qanday kompaniya bo'lmasin, albatta qo'shimcha kapital zaxiralar va bozorlari kerak bo'ladi. Negaki, kapital qo'yilmalari va bozori korxona yoki kompaniyaning kelajakdagi istiqbolini belgilab beradi. Ma'lumki, hozirgi kunda tijoriy banklarining asosiy daromadlari kapital qo'yilmalri ya'ni kredit berish hisoblanadi Bu borada O'zbekiston Respublikasi Shavkat Mirziyoyevning qabul qilgan farmoni bor[1], ya'ni O'zbekiston 2021-yil 13-aprel va 2022-yil 17-yanvardagi PQ-90-sonli "Qo'shimcha kapital bozorini qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi farmonlari buning yaqqol dalilidir.[2]

Kapital bozori va kapital qo'yilmalari borasida ko'plab olimlar tadqiqot va izlanishlar olib borgan. Ushbu sohaning e'tiborga molik olimlaridan biri U.Azizovning fikricha, kapital bozori aholining bo'sh turgan mablag'larini iqtisodiyot tarmoqlariga jalb etish va oqimni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar. Bu esa, o'z navbatida, kapital bozorining kredit bozori bilan raqobatlashishi, moliya bozorining tarkibiy qismi kapital bozorida noyob raqobat muhitini yaratishga olib keladi. Jumladan kapital bozori va kapital qo'yilmalari ishlab chiqarishning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu borada zamonaviy iqtisodchilar N.I.Berzon, E.A.Buyanov kapital bozorini ishlab chiqarishning ajralmas qismi sifatida tushuntirganlar[1]. Ularning fikricha, buni tushunish uchun avvalo "kapital" kategoriyasining mazmunini aniqlab olish zarur. Ya'ni kapital — bu pul, ish haqi,

[1] Ph.D Azizbek Abdurashidovich Shomirov, Tashkent Institute of Finance.

ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar ekanligi qabul qilingan.[3] Kapital bozoridan foydalanish kompaniyalar uchun keng darajada foyda keltiradi. Bu borada qo‘shni Tojikistondan bo‘lgan iqtisodchi M. I. Kosimovaning kapital bozorining iqtisodiyotdagi roliga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarida shunday ta’rif beriladi:

“Tor ma’noda kapital bozori ishlab chiqarish omili va ishlab chiqarish munosabatlarining asosi sifatida qaralishi mumkin. Keng ma’noda esa kapital — moddiy, moliyaviy va nomoddiy aktivlarni o‘z ichiga olgan o‘zaro bog‘liq bozorlar majmui, ya’ni undan foydalanish qo‘shimcha foyda keltiradigan obyekt sifatida tushuniladi.”[2]

So’ngi yillarda Yangi O’zbekistonda ham kapital qo’yilmalari va kapital bozorida o’sish tendensiyalari kuzatildi. Masalan, milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-sentyabr oylarida O‘zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmi 443,6 trillion so‘mga yetdi. Hududlar kesimida investitsiyalarning eng katta ulushi 71,8 trillion so‘m bilan Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Toshkent viloyati 63,6 trillion so‘m bilan ikkinchi o‘rinda, 51,4 trillion so‘m bilan Namangan viloyatiga to‘g‘ri keldi. Navoiy (32,7 trillion so‘m), Buxoro (29,1 trillion so‘m), Qashqadaryo (28,9 trillion so‘m) va Samarqand (28,3 trillion so‘m) viloyatlarida ham muhim investitsiyalar hajmi qayd etildi. Boshqa hududlarda Andijon viloyatiga 26,6 trillion so‘m, Farg‘ona viloyatiga 25,7 trillion so‘m, Jizzax viloyatiga 18,7 trillion so‘m, Qoraqalpog‘iston Respublikasiga 17,6 trillion so‘m, Xorazm viloyatiga 17,2 trillion so‘m, Surxondaryo viloyatiga 17,2 trillion so‘m, Sirdaryoda 14,2 trln ni tashkil etdi.[4] Faqat bu soha rivojlanibgina qolmay, balki kapital bozoriga tegishli bo’lgan sohalarda ham sezilarli o’sish ko’rsatkichlari namoyon bo’lmoqda. Jumladan, O’zbekiston fond bozorida ham sezilarli darajada foyda ko’rdi. Statistik ma’lumotlarga ko’ra O’zbekistonda fond birjasi 2025 yilning birinchi yarmida 11,2 milliard so‘m sof foyda ko‘rdi, bu o‘tgan yilning shu davridagi 177,3 million so‘mdan sezilarli darajada ko‘p.[5]

Tadqiqot jarayonidan bizni xulosamiz shuki, Kapital qo‘yilmalari mamlakat iqtisodiyotining o‘sishi, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi texnologiyalarni joriy etishda asosiy harakatlantiruvchi kuchdir. Ular korxonalar rivoji, infratuzilma kengayishi va bandlikni oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Kapital bozori esa ushbu jarayonning moliyaviy asosi bo‘lib, investitsiya resurslarini shakllantirish, ularni erkin muomalada taqsimlash va korxonalarni uzoq muddatli mablag‘lar bilan ta’minlashga xizmat qiladi. Bozorning rivojlanishi investorlar ishonchini oshiradi, moliyaviy oqimlarni tartibga soladi va iqtisodiy faollikni

[2] Ph.D Azizbek Abdurashidovich Shomirov Tashkent Institute of Finance

kuchaytiradi investitsiya jarayonini kuchaytiradi, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi PF-6207-son qarori “kapital bozorini yanada rivojlantirish”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi “Qo‘shimcha kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlari».
3. N.I. Berzon, E.A Buyanov Rynok capital. - M: "VITI-PRESS", 2006. S. 28
4. Toshkent, O‘zbekiston (UzDaily.com)
5. www.stat,uz
6. M. I. Kosimova, «Xususiyatlar shakllanishi va rivojlanishining kapital bozorida iqtisodiyoti Tojikiston». Iqtisodiyot fanlari nomzodi dissertatsiyasi. Dushanba, 2020 yil.